

## TURLI HUDUDLARIDA YETISHTIRILGAN ASAL TARKIBIDAGI DIASTAZA MIQDORINI ANIQLASH

S.Sulaymonov

Assistant SamDVMCHBU Nukus filiali

### *Annotatsiya:*

ushbu maqolada asal tarkibidagi diastaza fermenti va uni sifat usulida aniqlash ifodalangan.

*Kalit soʻzlar:* Process, Organization, Europe, modern, trend, country

### *Mavzuning dolzarbligi*

Asalarining birinchi asosiy mahsuloti bu asal boʻlib, uning inson organizmiga foydali xususiyatlari bu uning tarkibidagi, birinchidan oddiy monosaxaridlarni 70-75 % gacha boʻlgani, shu bilan birgalikda asal tarkibini, glyukoza va fruktozaga va boshqa mikroelementlarga boyligidir. Oqsillardan oʻsimlik oqsillari yaʼni har-xil gullardan olingan va asalari suyuqligida tirik organizm oqsillarini borligi boʻlsa, bundan tashqari asal tarkibida garmonlar, antibiotiklar, organik kislotalar, vitaminlardan S, E, B, B<sub>2</sub>, B<sub>3</sub>, K borligi katta ahamiyatga ega. Asal tarkibida yuqorida koʻrsatib oʻtilgan moddalardan tashqari oziq-ovqat moddalarini tez parchalanishda eshtirok etadigan fermentlarni koʻpchiligi uchrashi aniqlangan. Bularni asosiyarlari invertaza, diastaza va katalaza fermentlari boʻlib, ulardan invertaza fermenti ikkilamchi murakkab shakarlarni parchalab, birlamchi oddiy shakarga aylantirishda ishtirok etadi. Diastaza fermenti kraxmalni parchalash xususiyatiga ega. Katalaza fermenti esa asalarilar tomonidan olib kelingan sharbatni qayta ishlab, asalga aylanishida qatnashadi. Asal tarkibida fermentlarning mavjudligi inson organizmida moddalar almashinuvini yaxshilaydi va asalni sifatini belgilaydigan asosiy koʻrsatkich hisoblanadi.

*Tadqiqot obʻekti va subʻekti:* Ilmiy tekshirish ishlari Samarqand Davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining “Veterinariya sanitariya ekspertizasi” kafedrasida olib borildi.

Tadqiqot ishlarida Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanining dasht hududidan, Kitob tumanining togʻli hududidan, Xorazm viloyati Xiva tumanining chul hududidan, Shovot tumanining suvli mahalliy xududidan yigʻishtirilgan asal namunalari olib kelinib, tekshirish ishlari amalga oshirildi.

*Tekshirish usuli:* Tekshirish ishlari sifat usulida olib borildi. Har-xil hududlardan olib kelingan namunalar alohida 100 mllik kolbaga 10 gr asal tortib olindi. Olingan namunalar ustiga kolbaning 100 ml belgisigacha harorati 20 °C boʻlgan distillangan suv solinib, yaxshilab eriguncha aralashtirildi va 10 % li asal eritmasi tayyorlab olindi. Har bir namunalar alohida probirkalarga 4,5 ml dan 10 % li asal eritmasi solinib, ustidan 5,5 ml distillangan suv qushildi. Aralashmalar ustiga 0,5 mldan 0,58 % li osh tuzi eritmasi solindi. Soʻng ustidan 5 mldan 1 % li kraxmal eritmasi qushildi.

Probirkalar tiqinlar bilan yopilib, yaxshilab chayqatildi va  $+40\pm 1$  °C haroratli suv hammomiga 1 saotga qo'yildi. Belgilangan vaqtdan so'ng, probirkalar suv hammomidan olinib, oqar suv yordamida xona haroratigacha tezlikda sovutildi. Probirkadagi sovutilgan aralashma ustiga 1 tomchidan yod eritmasi tomizilib, yaxshilab aralashtirildi va rangning o'zgarishi ko'zatildi.

Reaksiyani o'qish: probirkadagi aralashmada ko'k rangning paydo bo'lishi, bu asal tarkibidagi diastaza fermenti miqdori va faolligini juda ham kam yoki yo'q bo'lib, aralashma tarkibidagi kraxmal parchalanmaganligidan dalolat beradi.

Aralashmaning binafsha rang hosil qilishi esa, asal tarkibidagi diastaza fermenti va faolligining past ekanligini bildirib, eritma tarkibidagi kraxmal qisman parchalanganligini bildiradi.

Probirkadagi aralashmaning rangsizlanishi esa, asal tarkibidagi kraxmal tuliq parchalanib, asal tarkibida diastaza miqdori ko'pligi va faolligining yuqori ekanligini bildiradi.

Tadqiqot natijasi: probirkalardagi aralashmaga 1 tomchidan yod tomizilgandan so'ng, reaksiyada yuqorida keltirilgan tartibda, rang o'zgarish holati ko'zatildi (1-jadval).

### **Respublikamizni Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarining turli xududlaridan olib kelingan namunalarning tadqiqot natijalari**

#### **1-jadval**

<b>№</b>	<b>Namunalar</b>	<b>Numanalarda reaksiyalarning natijalari</b>
<b>1</b>	Qashqadaryo viloyati, Shaxrisabz tumanining dasht hududidan	<i>Aralashma rangsizlandi.</i>
<b>2</b>	Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanining tog'li hududidan	<i>Aralashma rangsizlandi.</i>
<b>3</b>	Xorazm viloyati, Xiva tumanining chul hududidan	<i>Aralashma rangsizlandi.</i>
<b>4</b>	Xorazm viloyati, Shovot tumanining suvli mahalliy xududidan yig'ishtirilgan	<i>Aralashma rangsizlandi.</i>

1. Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumanining dasht hududidan yig'ishtirilgan asal namunasida reaksiya ijobiy natijaga erishilib, eritma rangsizlandi. Bu asal tarkibida diastaza soni 11 Gote birligidan ko'p ekanligini bildirdi.

2. Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanining tog'li hududidan yig'ishtirilgan asal namunasida reaksiyaning rangi rangsiz tusga kiringani aniqlandi. Bu asal tarkibida diastaza soni 11 Gote birligidan yuqori ekanligini bildirdi.

3. Xorazm viloyati Xiva tumanining chul hududida yetishtirilgan asal namunasida reaksiyaning rangi rangsizlanib, asal tarkibida diastaza miqdori 11 Gote birligidan yuqori ekanligini bildirdi.

4. Xorazm viloyati Shovot tumanining suvli mahalliy xududidan yetishtirilgan asal namunasi reaksiyasining rangi rangsizlanib, asal tarkibidagi diastaza miqdori 11 Gote birligidan yuqori ekanligini bildirdi.

#### **Xulosa**

1. Tadqiqot ishlaridan kurinib turibdiki olib kelingan barcha namunalarimiz sof asal ekanligidan dalolat berib, tarkibida diastaza miqdori standart talabga javob beradi deb xisoblaymiz.

2. Yetishtirilgan asal tarkibidagi diastaza soni ko'rsatkichi va faolligi asal yetishtirilgan xududga bog'lik ekanligini ham aytishimiz mumkin.

3. Asal tarkibidagi diastaza miqdori 11 Gote birligidan yuqori bo'lsa, bunday asalni 2 yilgacha saqlash mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. V.Brovarskiy, Sh.Suyarkulov, Y.Brindza, V. Otchenashkolar "Asalarichilikda tajriba ishlari" Toshkent 2021 yil "Baktriya press" nashriyoti.
2. В.А.Макаров и др «Практикум по ветеринарно санитарной экспертизе» Москва 1987 Агропромиздат.
3. D.R.Nasimova «Turli fasllarda yetishtirilayotgan asalari asalini ekspertizasida usullarni qo'llash» dissertatsiya 2017 yil.
4. A.T.Ibragimov va boshqalar. "Turli geoeologik xududlarda yetishtirilayotgan asalni veterinariya sanitariya ekspertizasidan o'tkazish" Veterinariya meditsinasi jurnali 2020 yil sentabr 09-son 32-34 betlar.